



XITOIY TILIDA GASTRONOMIK METAFORALARNING SEMANTIK TAHLILI

Fayzullayeva Madina Qahramon qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik

universiteti tayanch doktoranti

madinafayzulaeva970@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada xitoy tilida uchraydigan gastronomik metaforalarning semantik tahlili misollar orqali ko'rib chiqiladi. Xitoyda oziq-ovqatga bo'lgan chuqur falsafiy va mafkuraviy munosabat tarixan ocharchilik va omon qolish uchun kurash bilan belgilanadi, ming yillar oldin mavjud bo'lib, bugungi kunda ham davlatning ba'zi kambag'al viloyatlarida saqlanib qolgan. Shu sababli, xitoy xalqida gastronomik metaforalarni o'rni katta va ularning har biri xitoy madaniyati, tarixi, urf-odatlariga haqida so'zlaydi.

Kalit so'zlar. Gastronomik metafora, “大锅饭”, “一锅粥”, “背黑锅”, “揭锅”, “铁饭碗”, “金饭碗”, “泥饭碗”.

Metaforaning turli xil ta'riflari mavjud va har bir tilshunos turli xil fikrlarga ega. Xitoylik tilshunos olim Sun Yi¹³ shunday degan: “Metafora - bu obyektiv mavjudlik, haqiqatdagi yulduzlar kabi yorqin. Odamlar ataylab yoki beixtiyor metaforalardan doimo foydalanadilar. Metafora nafaqat barcha adabiy asarlarda, istalgan vaqtda, istalgan joyda balki siyosatda ham uchraydi. Fan va texnologiyaning har bir burchagida uchratishimiz mumkin. Sun Yining metafora kontsepsiyasidan “u har bir burchakda har doim paydo bo'ladi” degan fikridan biz metafora kundalik hayotda hamma joyda, eng muhimi, oziq-ovqatda ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Gastronomik metaforaning lingvistik atama sifatida ta'rifini shakllantirish uchun biz gastronomiyani fanlararo fan sifatida tushunishga tayanamiz. Ushbu ilmiy fanni ko'rib chiqish mavzusi oziq-ovqat, ya'ni “yeyish mumkin bo'lgan hamma narsa”¹⁴ shuningdek, uning ta'mi va tayyorlash usullari (pishirish)dir. Quyida biz gastronomik metaforalar ishtirok etgan turli dirkurslarni tahlil qilamiz.

¹³ 孙毅 “认知隐喻学多维跨域研究”, 北京大学出版社, 2013. -82页.

¹⁴ Brillat-Savarin J.A. The Physiology of Taste; Or, Transcendental Gastronomy / rendered into English by Fayette Robinson. - New York: Courier Dover Publications, 2002. - 346 p.



到了上世纪60年代初期的“三年困难”时期，只能喝“大锅汤”了。一口大大的铁锅里，水烧开后，撒进去的只有几把米，放进去的是一筐筐的青菜。

(<https://baike.baidu.com>)

O'tgan asrning 60-yillari boshidagi “Uch qiyinchilik” davrida “katta qozon sho'rva”dan ichishdan boshqa ilojimiz yo'q edi. Katta temir qozonga suv qaynagandan so'ng, bir necha hovuch guruch va u yerga sabzavotlar solinardi. (<https://baike.baidu.com>)

所以，深化改革也好，全面小康共同富裕也好，都不能回到平均主义吃“大锅饭”的老路上去。(杨浦时报 2018-06-16 8版)

Binobarin, islohotlarni chuqurlashtiramizmi yoki har tomonlama mo'tadil farovon jamiyat quramizmi, umumiy farovonlikka erishamizmi, baribir biz tengdoshlik, bir katta qozondan yeydigan eski yo'lga qaytolmaymiz. (Yangpu Times, 2018-06-16, 8-bet)

1960-yillarda xitoyda umumiy qozondan ovqatlanish odatiy hol bo'lgan. Hamma bitta joyda ovqatlanib, keyin zavodlarga, korxonalarga ishlashga ketishgan. Taomlanish uchun hoh u chol bo'lsin, hoh bola barcha bitta joyda yig'ilishgan. Bu barcha xalqning teng hayot kechirishini bildirgan. “Katta qozon dasturxonini ikki jihatni o'z ichiga oladi: birinchisi, korxonalar davlatning katta qozon taomidan yeyishi, ya'ni korxona faoliyatidan qat'iy nazar, daromadli yoki zarar ko'rayotganligidan qat'iy nazar, ish haqi to'lanadi, korxonaning umumiy ish haqi esa faoliyat natijalaridan uzilib qoladi; ikkinchisi, xodimlar korxonaning katta qozon taomidan, ya'ni korxona ichida, xodimlar qancha yoki oz ishlasa ham, o'z ishini qanchalik yaxshi yoki yomon bajarmasin, bu ularning shaxsiy ish haqi taqsimotiga ta'sir qilmaydi va ish haqqi taqsimotida jiddiy tenglik mavjud”¹⁵. “大锅饭” da guofan “katta qozon taomi” barcha bir qozondan ovqatlanishi bizga “tenglik” metaforik ma'no ko'chishini beradi.

赵大年 等《第三代》：“就在当天晚上，按照 刘雨芳 和她未来的女婿 李保本的锦囊妙计，工厂里乱成了一锅粥”。(<https://m.zaojv.com>)

Zhao Danian “Uchinchi avlod”: “o'sha kechada, Liu Yufang va uning bo'lajak kuyovi Li Baobenning aqlli rejasiga ko'ra, zavod tartibsiz bo'lib qoldi”. (<https://m.zaojv.com>)

所以当洪水一泻而下的时候,关内顿时大乱,兵马自相践踏,百姓慌忙逃命,整个汜水关乱成了一锅粥。(<https://m.zaojv.com>)

¹⁵ <https://baike.baidu.com>



Shunday qilib, sel quyilganida, dovonda tartibsizlik paydo bo'ldi, askarlar va otlar bir-birlarini oyoq osti qilishdi, odamlar shoshilib jon olish uchun qochib ketishdi va butun Sishui dovoni tartibsiz ahvolga keldi.(<https://m.zaojv.com>)

Bu yerda “一锅粥” yiguozhou iborasi so‘zma-so‘z tarjima qilinganda “bir qozon bo‘tqa” degan ma‘noni anglatadi. Bo‘tqani ko‘z oldimizga keltirganimizda hamma narsa aralashgan, tartibsiz ahvolda ko‘rinadi. Shu sababli “一锅粥” tartibsiz narsalarni ifodalashda qo‘llaniladi.

经济下行不应让“八项规定”背黑锅.(sina 新闻中心 2015-07-22)

Iqtisodiy tanazzulda “Sakkiz qoida”ni ayblamaslik kerak. (sina axborot agentligi 2015-07-22)

“背黑锅” beiheiguo iborasi o‘z-o‘zidan bilmagan holda boshqalar nomidan adolatsizlikka duchor bo‘lishdir, ya‘ni aybni o‘z bo‘yniga olishni anglatadi. Bu iborani so‘zma-so‘z tarjimasiga qaraydigan bo‘lsak, “orqasida qora qozon” degan ma‘noni beradi. Bunda birovning aybini, birovning qora ishini orqasiga og‘ir yuk qilib, qora qozondek ko‘tarib yurganini tasavvur qilishimiz mumkin.

徐光耀《平原烈火》四七：“告诉你？这是军事秘密，不到揭锅那天，乱揭还行哪？” (<https://baike.baidu.com>)

Syu Guangyaoning “Yaylovdagi olov” 47-bob: “senga mima deya olaman? bu harbiy sir, sir oshkor bo‘lgunga qadar, uni fosh qilish joizmi?”. (<https://baike.baidu.com>)

Ushbu gastronomik metafora “揭锅” jie guo so‘zma-so‘z tarjima qilinganda “qozonni ochmoq” degan ma‘noni anglatadi. Metaforik jihatdan esa bizga haqiqat yoki natijalarni vaqti kelganda ommaga oshkor qilish, sirlarni ochish ma‘nosini beradi. O‘zbek tilida ham shunga o‘xshash “yopiq qozon yopiqlicicha qolsin” degan ibora bor, ya‘ni sir yoki biror bir natija ommaga oshkor qilinmasin, shu joyda qolsin degan ma‘noni beradi.

“裁撤国企“铁饭碗” 凸显中国经济困境”(人民日报 2024.09.28)

“Davlat korxonalarining “temir guruch kosasini” yo‘q qilish Xitoyning iqtisodiy qiyinchiliklarini ko‘rsatadi” (Renminbao 2024.09.28)

“他最珍视自由，为那个，他甘心把铁饭碗打破。(<https://baike.baidu.com>)

“U erkinlikni hammadan ham qadrlaydi va buning uchun u temir guruch kosasini sindirishga tayyor. (<https://baike.baidu.com>)

“铁饭碗” tie fanwan “temir guruch kosasi” [Xitoy Xalq Respublikasining](#) ismidir , bu Xitoy Xalq Respublikasining [ishsizlik](#) xavfi bo‘lmagan yuqori barqaror ish va ish haqi tizimiga ishora qiladi. Bunday ishlarning doimiyliigi va barqarorligi bilan birga,



tabiat ishning o'zini temir kabi qattiq qiladi, shuning uchun juda barqaror bo'lgan ish bu nomga ega bo'ladi. Davlat xizmatchilari, harbiy xizmatchilar, davlat maktablaridagi o'qituvchilar va davlat muassasalari xodimlari asosan temir guruch kosasiga tegishlidir¹⁶. O'zbek tilida ham biror bir qiyin ish, kasb turiga nisbatan "buni nonini yeyish uchun temirdan tishing bo'lishi kerak" degan o'xshatishlarni ishlatishadi. "铁饭碗" tie fanwan "temir guruch kosasi" tirikchilik uchun metafora hisoblanadi, ya'ni yaxshi yashash uchun kosa temirdan bo'lmasa sinib qoladi, barqaror, doimiy kasb egasi bo'lish kerakligini anglatadi.

民间有云：“黄金饭碗在手，万世福禄不愁”！(https://mall.ifeng.com)

Xalqda naql bor: "Oltin guruch kosasi qo'lda bo'lsa, baxt va boylik haqida qayg'urmaysan"! (https://mall.ifeng.com)

"金饭碗" jin fanwan "oltin guruch kosasi" bu juda yaxshi maoshga ega bo'lgan lavozim yoki milliy davlat xizmati lavozimi uchun metafora. "21-asrning boshlarida u metaforik ravishda viloyat darajasidan yuqori bo'linmalardagi davlat xizmatchilarining lavozimlariga ham ishora qiladi. Guangdongda shartnoma tuzayotganda oltin guruch kosasini berish odati bor¹⁷. Bugungi xitoy jamiyatida odamlar lavozim darajasini tavsiflash uchun "temir guruch kosasi" va "oltin guruch kosasi" dan foydalanadilar. Nomidan ko'rinib turibdiki, "oltin guruch kosasi" juda yaxshi muomalaga ega pozitsiyadir. Bu "oltin guruch kosasi" bilan oziq-ovqat, kiyim-kechak haqida qayg'urmasdan ajoyib hayot kechirish mumkin deganidir.

“日出而作，日入而息是泥饭碗的人过的日子。”(http://c.obskey.com)

"Quyosh chiqqandan toki quyosh botgunga qadar ishlash loy guruch kosalik odamning umridir. (http://c.obskey.com)

Ushbu gastronomik metafora nomidan ma'lumki, oltin va temir kosaga qaraganda, loy kosa past darajadagi buyum hisoblanadi. Bunda oltin-temir-loy so'zlari o'rtasida metaforik xaritalash yuzaga keladi. Huddi shunday jamiyatdagi ish o'rinlari ham shu kosalar kabi tabaqalangan desak ham bo'ladi. Butun xalqqa tegishli bo'lgan doimiy ish "temir guruch kosasi", mos ravishda jamoa mulki yoki yakka tartibdagi korxonadagi ish esa "泥饭碗" ni fanwan "loy guruch kosasi" deb ataladi. Beqaror martaba va lavozimlar uchun metaforik ma'noni angalatadi.

Aksariyat hollarda xitoy taom nomlari ichida madaniy kod mavjud bo'lib, ularni metofofik, metonomik tahlillar orqali anglab yetamiz. Xitoy madaniyatida har bir taom alohida kelib chiqish tarixiga, o'zining ramziy ma'nosiga ega ekanligi bilan boshqa mamlakat madaniyatlaridan ajralib turadi.

¹⁶ https://baike.baidu.com

¹⁷ https://baike.baidu.com





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lakoff G. Metaphors We Live By / George Lakoff, Mark Johnson. – Chicago : Chicago University Press, 1980. – 242 p.
2. Brillat-Savarin J.A. The Physiology of Taste; Or, Transcendental Gastronomy / rendered into English by Fayette Robinson. - New York: Courier Dover Publications, 2002. - 346 p.
3. 孙毅 “认知隐喻学多维跨域研究”, 北京大学出版社, 2013. -82页.
4. 陶晴. 汉语饮食词语的隐喻转喻认知考察, 上海外国语大学 , 2017年. - 70页.
5. <https://baike.baidu.com>